

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 2 (14)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Adilov Abror Anvarovich IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI DASTLABKI YILLARDA O‘ZBEKISTONDAGI DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI TARIXIDAN	5
2	Алиназарова Дилдора Валишеровна ВОЕННЫЕ КОРРЕСПОНДЕНТЫ И ИХ ВКЛАД В РЕГИОНАЛЬНУЮ ПЕРИОДИЧЕСКУЮ ПЕЧАТЬ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ	14
3	Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich XIX ASRNING 30-40-YILLARIDA BUXORO XONLIGIDA INGLIZ-RUS SAVDO- IQTISODIY RAQOBATI VA UNING MINTAQAVIY SAVDO ALOQALARIGA TA’SIRI	27
4	Bo'tayev Jonibek Shodiyevich XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA HARBIY- MA’MURIY BOSHQARUV TIZIMINING SHAKLLANISHI	35
5	Исхаков Мирсадик Мирсултанович, Ғойибов Бобир Собирович СУҒДИЙ ТИЛ СОН ТУРКУМИНИНГ ЛЕКSIK ВА РАҚАМЛИ ИФОДАЛАРИ	43
6	Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi NAVRO‘Z AHMADHON VA UNING AVLODLARI DAVRIDA TOSHKENT	53
7	Mamatova Maxfuza Baxriddinovna MARKAZIY OSIYO CHOY YO’LI TARIXIDAN	61
8	Muzaffarov Muhammadaminxon Xusanxon o‘g‘li TURKIY TILLI DAVLATLAR HAMKORLIK KENGASHI (TURKIY KENGASH) TARKIBIDAGI ASOSIY ORGANLAR VA TUZILMALAR	67
9	Ne'matov Shoxzodbek Ulug'bek o'g'li O‘ZBEKISTONDA O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR (2017–2021-YILLAR)	73
10	Normuratov O‘rolbek Jumma o‘g‘li BUXORO XONLIGI VA ROSSIYA PODSHOLIGI O‘RTASIDAGI SIYOSIY HAMDA IQTISODIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI (XVI ASR OXIRI – XVII ASR BIRINCHI YARMI)	82
11	Очилдиев Файзулла Бобокулович БУХОРО АМИРЛИГИГА ТЕМИР ЙЎЛ ТАРМОҒИНИНГ КИРИБ КЕЛИШИ ВА УНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ	92
12	Qosimov Mirjalol Ravshan o‘g‘li O‘ZBEKISTONLIK PARTIZANLARNING SOBIQ ITTIFOQ HUDUDINI OZOD ETISHDAGI ISHTIROKI (UKRAINA VA RSFSR MISOLIDA)	101
13	Raximova Gulilola Zohid qizi O‘ZBEKISTONDA BOLALAR MAVZUSIGA IXTISOSLASHGAN OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING FAOLIYATI	110
14	Саломова Барчиной Журакуловна ЖУРНАЛИСТ АЁЛЛАРНИНГ ЖАМИЯТ ҲАЁТИ ВА ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАРДАГИ ЎРНИ	117
15	Toirova Zamira Suban qizi TOSHKENT IQTISODIY RAYONI ELEKTR ENERGETIKASI: HUDUDIY JOYLASHUVI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	131
16	Turdaliyeva Gulasalxon Abdusalom qizi XV ASR OXIRIDA HIROT DAVLATIDA SOLIQ SIYOSATINING XUSUSIYATLARI (HUSAYN BAYQARO DAVRI)	137
17	Xasanboyeva Gulxayo Ximmat qizi 1950-1980-YILLARDA O‘ZBEKISTON SSR KOLXOZLARINING HOLATI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR	142

18	Qodirova Ra'no Mamirjonovna SOVET HOKIMIYATINING DASTLABKI YILLARIDA TURKISTON XALQ MAORIFI VA JAMIYATSHUNOSLIK FANINING SHAKLLANISHI	148
19	Ergashev Umidjon Muhammed o'g'li O'ZBEKISTON SSRDA SOLIQ TIZIMINING TASHKIL ETILISHI (TOSHKENT OBLASTI MISOLIDA)	155
20	Эргашев Хусан Юсуп ўғли ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИДА ОЛИБ БОРИЛГАН АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ОЛИБ БОРИЛИШИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	162
21	Xaitov Zafar Uzakovich VIZANTIYA MADANIYATI VA UNING JAHON SIVILIZATSIYASIDA TUTGAN O'RNI	167
22	Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи ВЕНСКАЯ СИСТЕМА МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ МУЗЕЙНОГО ДЕЛА ВО ФРАНЦИИ В ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА	173

Toirova Z. S.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası tayanch doktoranti

O‘zbekiston Milliy universiteti

zamiratoirova32@gmail.com**TOSHKENT IQTISODIY RAYONI ELEKTR ENERGETIKASI:
HUDUDIIY JOYLASHUVI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Toshkent iqtisodiy rayonida elektr energetikasi sohasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari o‘rganilgan. Maqolada sanoat va aholi ehtiyojlarini qondirish uchun amalga oshirilgan elektrlashtirish jarayonlari, yangi GES va GRESlarning qurilishi, mavjud quvvatlarning modernizatsiyasi, energiya tarmoqlarining kengaytirilishi tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Hududda elektr energetikasining rivoji nafaqat sanoatning, balki aholi turmush darajasining ham uzluksiz o‘shishiga xizmat qilgani tahlil qilinadi. Toshkent iqtisodiy rayonida energiya ishlab chiqarishning xilma-xil manbalari va ularning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, GES hamda GRESlar ulushi va roli bosqichma-bosqich misollar bilan asoslab beriladi. Olingan natijalar Toshkent iqtisodiy rayonining butun respublika miqyosida energetik yetakchilik salohiyatini namoyon qiladi.

Kalit so‘zlar: Toshkent iqtisodiy rayoni elektr energetikasigidroelektrostansiya (GES) issiqlik elektr stansiyalari (GRES) energiya rivojlanish bosqichlari sanoat rivoji, energetika tarixi, O‘zbekiston energetikasi, suv resurslari, tabiiy gaz, Chirchiq-Bo‘zsuv kanali.

KIRISH

Sanoat va xalq xo‘jaligining sur‘at bilan rivojlanishi, aholi zichligi yuqori bo‘lgan Toshkent iqtisodiy rayoni uchun elektr energetikasi sohasining taraqqiyoti alohida ahamiyat kasb etdi. O‘zbekistonning eng yirik iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lgan mazkur hududda elektr energiyasiga bo‘lgan talab yil sayin oshib, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va zamonaviylashtirish zarurati vujudga keldi. Respublika miqyosida olib borilayotgan elektr energetikasi siyosati va ishlab chiqarish loyihalari Toshkent iqtisodiy rayonining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Hududda yangi elektr stansiyalari qurilishi, mavjud quvvatlarning rekonstruksiya qilinishi, elektr tarmoqlarining kengaytirilishi natijasida sanoat korxonalari, temir yo‘l transporti, turar-joy massivlari va boshqa tarmoqlarning faoliyati ishonchli energiya bilan ta‘minlangan holda barqaror rivojlanishga erishildi.

Mazkur maqolada Toshkent iqtisodiy rayoni hududida elektr energetikasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy faktlar elektr quvvati hosil qilish butun yoqilg‘i-energetika majmuining eng ilg‘or, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari va aholining kundalik turmushi uchun eng zarur yo‘nalishdir. Elektr quvvatisiz xalq xo‘jaligini jadal rivojlantirib bo‘lmaydi. Shu sababli ham xalq

хо‘jaligi tarmoqlarini, shahar va qishloqlarni elektrlashtirish birinchi darajali ahamiyat kasb etdi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Toshkent iqtisodiy rayoni - O‘zbekistonning eng yuqori darajada rivojlangan sanoat mintaqasi hisoblanadi. Hududda respublikadagi jami sanoat mahsulotining 40 foizidan ortig‘i va elektr energiyasining 90 foizi ishlab chiqariladi. Sanoat mahsulotlarining uchdan ikki qismi og‘ir sanoat korxonalari hissasiga to‘g‘ri keladi[1]. Bu hududda sanoat korxonalarining yuqori darajada rivojlanishida elektr energetikaning hissasi katta bolgan.

Hozirgi O‘zbekiston hududida 1913 yil oxirlariga kelib 43 ta mayda elektr stansiyasi mavjud bo‘lgan, shundan 31 tasi Toshkent shahrida joylashgan edi. Ular orasida quvvati 10 – 15 ot kuchiga ega bo‘lganlari ham bor edi. Toshkent tramvayiga xizmat ko‘rsatuvchi elektr stansiyaning quvvati esa 125 ot kuchiga teng bo‘lgan. O‘sha yili jami 3,3 million kVt-soat elektr quvvati hosil qilingan[2].

O‘zbekiston elektr energetika sanoatining taraqqiyoti GOELRO rejasidan boshlandi va u ikki davrni bosib o‘tdi. Respublika hududida dastlab gidroelektr stansiyalar qurildi, bu esa maqsadga muvofiq bolgan. Chunki, yoqilg‘i chetdan olib kelingani sababli issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqarilgan quvvatning tannarxi yuqori bo‘lgan.

Suv quvvatidan foydalanish O‘rta Osiyo respublikalari uchun yana bir muhim muammoni – yangi yerlarga suv chiqarish va sug‘orishni osonlashtirardi. Shuningdek, O‘zbekistondagi dastlabki GESlar asosan kanallar va kichik daryolarda qurilib, iqtisodiy va texnik jihatdan manfaatli va arzon tushgan.

Shunday qilib, O‘zbekistonda elektr energetikasi taraqqiyotining dastlabki yillaridan boshlab daryolar suvidan ham energetika, ham sug‘orish maqsadida foydalanishga asosiy e‘tibor qaratildi. 1926 yilda ishga tushirilgan Bo‘zsuv GESi O‘rta Osiyodagi dastlabki gidroelektr stansiya bo‘lgan[3].

1942-yil noyabrgacha Chirchiq va Toshkent energetika sistemalarining qishki quvvatini 160-170 ming kilovattgacha yetkazish, shuningdek, 4 – 5 oy ichida Toshkent yonida 60-70 ming kilovatt elektr energiya bera oladigan issiqlik elektrostansiya qurilishi, bu stansiyalarni mahalliy ko‘mir asosida ishlatish tadbirlari ilgari surildi. Ushbu ehtiyojlarni qoplash uchun 1 milliard so‘m mablag‘ ajratildi. Amaliyotda esa Solar, 1-Quy Bo‘zsuv (birinchi navbati), 2-Oqqovoq (ikkinchi navbati) va Farhod gidroelektrostansiyalarini qurish yuzasidan qat‘iy choralar ko‘rildi.

O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining VIII plenumi Farhodstroy qurilishining 1943-yilgi kuzgi plan topshiriqlarini bajarishga yordam ko‘rsatish tadbirlari to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqdi va qurilish sur‘atlarini oshirishni vazifa qilib qo‘ydi. Barcha partiya tashkilotlariga gidroelektrostansiya qurilishiga har tomonlama yordam berish, uni ishchi kuchlari va zarur materiallar bilan ta‘minlash topshirildi. Farhod GES qurilishiga respublikaning o‘zida 8 ming kubometr dan ko‘proq yog‘och va boshqa binokorlik materiallari, 800 tonna metall, 110 mingdan ortiq har xil asbob-uskuna va transport vositalari topilib ishga solindi.

Bundan tashqari, respublika mehnatkashlari bu umumxalq qurilishiga 300 vagondan ko'proq har xil qurilish materiallari yubordilar.

Ko'rilgan tadbirlar, Farhod GES ishchilarining qahramonona shijoati va mehnati tufayli Sirdaryoni jilovlash juda qisqa muddatda – 10 oyda amalga oshirildi. Holbuki, odatda bunday ishlar 2-3 yilga cho'ziladi. Farhod GESning ikki agregati (birichi navbati) 1946-yilning fevral oyida ekspluatatsiyaga topshirildi. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni bilan Farhod GES qurilishida faol qatnashgan va qahramonona mehnat qilgan 500 kishi Sovet Ittifoqining orden va medallari bilan mukofotlandi.

Urush yillari Tovoqsoy, Oqtepa, Oqqovoq, Qibray, Solar, Qutbozsuv va boshqa gidroelektrostansiyalar qurilib, ishga tushirildi. Natijada O'zbekistonda elektr energiya ishlab chiqarish 1940-yildagi 482 million kilovatt-soatdan 1945-yilda 1 million 187 ming kilovatt-soatgacha oshdi[4].

Urushdan keyingi dastlabki yillarda ham Chirchiq-Bo'zsuv suv trakti, Shahrikhonsoy, Namangansoy daryolari va Darg'om kanalida bir necha kichik GESlar ishga tushirildi. Bu davrlarda GESlar bilan bir qatorda uncha katta bo'lmagan issiqlik stansiyalari ham qurildi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Termiz, Urganch shaharlaridagi kichik elektr stansiyalari hamda Quvasoy GRES ana shular jumlasidandir. 1950-yillarning oxiriga qadar respublikamizda elektr energiyasi ishlab chiqarishda GESlar asosiy rolni o'ynab keldi. Masalan, 1955 yilda O'zbekistonda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 70 foizi GESlar hissasiga to'g'ri kelgan[5].

Respublikamiz elektroenergetika sanoatining rivojlanishidagi ikkinchi bosqich 1960-yillardan boshlandi. Bu davrda yirik Buxoro-Xiva gaz hududidagi tabiiy gaz zaxiralarining topilishi va ishga solinishi bilan ushbu arzon yoqilg'iga asoslangan yirik issiqlik elektr stansiyalari qurila boshlandi va elektr energiyasi ishlab chiqarishda issiqlik stansiyalarining ulushi tez ortib bordi.

Tabiiy gaz asosida ishlovchi Toshkent GRESi (1920 ming kVt), Navoiy GRESi (830 ming kVt), Tahiatosh GRESi (348 ming kVt) hamda ko'mir asosida ishlovchi Angren GRESi (600 ming kVt)ning qurilishi bilan elektr energiyasi ishlab chiqarishda turli manbalar ulushi tamomila o'zgardi[6]. Angren GRESining quvvati hattoki Angren-Olmaliq tog'-kon sanoat korxonalari, metallni qayta ishlash va tog'-metallurgiya kombinati uchun ham yetarli bo'lgan.

1965-yilga kelib, Angren GRESi O'zbekiston elektr energiyasi ishlab chiqarishining 27 foizini tashkil etgan. Angren GRESining quvvati ortib borishi, shaharda yangi sanoat korxonalari qurilishini talab qilgan. Shu tariqa Angren hududiga ko'plab og'ir sanoat tarmoqlari joylashtirila boshladi. Ayniqsa, 1960-yillarda bu hududda og'ir kimyo va neft sanoati tarmoqlari jadal suratlarda qurila boshlandi [7].

1965 yilga kelib, respublikamizda ishlab chiqarilgan umumiy elektr energiya 78,6 foizini issiqlik elektr stansiyalari bergan [8].

Keyingi davrlarda ham, ayniqsa, gazda ishlovchi issiqlik elektr stansiyalarining salmog'i doimiy oshib bordi. Shuni qayd etish lozimki, O'zbekistonda issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqarilgan elektr energiya mamlakatda eng arzon energiya turlaridan biri hisoblanadi. Albatta, bu davrda ham respublikamiz

daryolaridan xalq xo'jaligida kompleks (irrigatsiya va energetika maqsadlarida) foydalanishga ustuvor ahamiyat berildi. Qator daryo va kanallarda yangi GESlar qurildi. Ular ichida, ayniqsa, respublikamizdagi eng yirik GES – Chorvoq GESini (600 ming kVt) alohida ta'kidlash lozim. Ushbu GES qurilishi chog'ida balandligi 160 metrli to'g'on va katta suv ombori barpo etildi[9]. Natijada, Chirchiq daryosi vodiysidagi dehqonchilik maydonlarining suv bilan ta'minlanish darajasi tubdan yaxshilandi va 160 ming gektar yangi yerlarni sug'orish imkoniyati tug'ildi. Chorvoq GES va suv ombori Chirchiq-Bo'zsuv elektr stansiyalari kaskadining ishlash rejimini ham sezilarli yaxshiladi. To'qqizinchi besh yillikda Chirchiq daryosida yana bir elektr stansiya – Xo'jakent GESi (165 ming kVt) qurilib ishga tushirildi. Shu bilan Chirchiq-Bo'zsuv kaskadini tashkil qiluvchi elektr stansiyalar soni 19 taga yetdi. Chirchiq-Bo'zsuv kaskadi, elektr stansiyalari soni bo'yicha mamlakatimizdagi eng yirik kaskadlardan biri hisoblanadi[10].

Markaziy Osiyoda eng yirik bo'lgan va yuqorida takidlab o'tilganidekquvvati 3 million kilovattga teng Sirdaryo GRESi barpo etildiganidan song., respublikada elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 1985 yilda 1940 yilga nisbatan deyarli 180 baravar oshdi [11]. Natijada, 1990 yilda ishlab chiqarilgan butun elektr quvvatining 90 foiziga yaqinini issiqlik elektr stansiyalari ishlab chiqardi [12].

O'zbekistonda energetika tarmoqlarining bu darajada rivojlanishiga sabab, Markazning xom ashyoga bo'lgan ehtiyoji ortib borishi hamda respublika hududidagi yer osti va yer usti boyliklarini qazib olish va qayta ishlash uchun katta miqdorda elektr energiyasi zarur bo'lganligi edi [13].

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 50 – 80-yillar mobaynida Toshkent iqtisodiy rayoni elektr energetikasi sohasida salmoqli yutuqlarga erishildi. Mavjud energiya resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy GRES va GESlar barpo etilishi, tarmoqlar uzviyligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar mintaqada elektr energiyasi yetkazib berishning barqarorligini mustahkamladi. Yangidan ishga tushirilgan elektr stansiyalari va modernizatsiyadan o'tgan mavjud quvvatlar tufayli nafaqat sanoat, balki aholi ehtiyojlari ham to'laqonli ta'minlangan. O'rta Osiyoning boshqa hududlariga nisbatan Toshkent iqtisodiy rayonida elektr energetikasi sohasining taraqqiyoti ancha ilg'or tus oldi. Bu esa, uning butun respublika xalq xo'jaligida yetakchi mavqega ega bo'lishiga mustahkam asos bo'ldi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Костенников В. М. Экономические районы СССР / В. М. Костенников. – Москва : Географгиз, 1958. – 112 с.
2. Асанов Г. Р., Набихонов М. Ўзбекистон ССРнинг иқтисодий ва социал географияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1984. 92 б.
3. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi: Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qtuvchi, 1994. – 71 b.

4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi (O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). – Toshkent: Sharq, 2010. 343 -344 b.
5. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi: Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qtuvchi, 1994. – 73 b.
6. Асанов Г. Р., Набихонов М. Ўзбекистон ССРнинг иқтисодий ва социал географияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1984. 93 б.
7. Ulmasbaev N., Sliva S. Sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonning sanoat rivojlanishi. – Toshkent: O'zbekiston, 1974. – 222-bet.
8. Асанов Г. Р., Набихонов М. Ўзбекистон ССРнинг иқтисодий ва социал географияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1984. 93 б.
9. Развитие и размещение производительных сил СССР. – М.: Наука, 1972. – 296 с.
10. Асанов Г., Набихонов М., Сафаров И. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий географияси: Педагогика олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 73 б.
11. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси, Ўзбекистоннинг Янги тарих маркази. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, Бош таҳририяти, 2000. 521 б.
12. Асанов Г. Р., Набихонов М. Ўзбекистон ССРнинг иқтисодий ва социал географияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1984. 93 б.
13. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси, Ўзбекистоннинг Янги тарих маркази. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, Бош таҳририяти, 2000. 521 б.

Тоирова З. С.

Базовый докторант кафедры «Истории Узбекистана»

Национальный университет Узбекистана

zamiratoirova32@gmail.com

ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИКА В ТАШКЕНТСКОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ РЕГИОНЕ: ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются этапы формирования и развития электроэнергетического сектора в Ташкентском экономическом регионе. На основе исторических источников рассматриваются процессы электрификации, которые были реализованы для удовлетворения потребностей промышленности и населения, строительство новых гидроэлектростанций и ГЭС, модернизация существующих мощностей и расширение энергетических сетей. Анализируется, как развитие

электроэнергетики в регионе служило не только промышленности, но и непрерывному росту уровня жизни населения. Различные источники производства энергии в Ташкентском экономическом регионе и их экономическое и социальное значение, а также доля и роль гидроэлектростанций и ГЭС, пошагово обосновываются примерами. Полученные результаты показали потенциал энергетического лидерства Ташкентского экономического региона в масштабах всей республики.

Ключевые слова: Ташкентский экономический регион, электроэнергетика, гидроэлектростанция (ГЭС), тепловые электростанции (ТЭС), этапы развития энергетики, промышленное развитие, история энергетики, энергетика Узбекистана, водные ресурсы, природный газ, канал Чирчик-Бозсу.

Toirova Z. S.

Basic doctoral student at the department of «History of Uzbekistan»

National University of Uzbekistan

zamiratoirova32@gmail.com

ELECTRIC POWER IN THE TASHKENT ECONOMIC REGION: TERRITORIAL LOCATION AND STAGES OF DEVELOPMENT

ABSTRACT

This article studies the stages of the formation and development of the electric power sector in the Tashkent economic region. The article covers the electrification processes carried out to meet the needs of industry and the population, the construction of new hydroelectric power plants and GRES, the modernization of existing capacities, and the expansion of energy networks based on historical sources. It analyzes how the development of electric power in the region has served not only the industry, but also the continuous growth of the living standards of the population. The various sources of energy production in the Tashkent economic region and their economic and social significance, as well as the share and role of hydroelectric power plants and GRES, are substantiated with step-by-step examples. The results obtained demonstrate the energy leadership potential of the Tashkent economic region throughout the republic.

Keywords: Tashkent economic region, electric power, hydroelectric power plant (HPP), thermal power plants (GRES), stages of energy development, industrial development, energy history, energy of Uzbekistan, water resources, natural gas, Chirchik-Bozsuv canal.